



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI BANDIXON TUMANI HOKIMINING
QARORI

Bandixon tumani Mustaqillik ko‘chasi. 1-uy.190300, tel.: (+99876)374-15-71, (bandixon.t@exat.uz,) doc.@sdv.uz

2022 года «20» мая

225-8-211-Q/22

Хокимият Бандихонского района

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish va ularni xarid qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-225-sonli hamda viloyat hokimining 2022-yil 17-maydagi 309-8-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash haqida

Tumanda bog‘dorchilik tarmog‘i va issiqxona xo‘jaliklarida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni moddiy resurslar (xizmatlar) bilan uzluksiz ta‘minlash hamda yetishtiriladigan mahsulotlarni kafolatli xarid qilish tizimini yaratish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish va ularni xarid qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-225-sonli hamda viloyat hokimining 2022-yil 17-maydagi 309-8-0-Q/22-sonli qarorlari ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (B.Hamrayev), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (T.Allaniyozov), tuman Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (F.Berdiev), Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi tuman bo‘limining ofis rahbari (O.To‘rayev) bilan birgalikda ikki hafta muddatda:

hosildor urug‘ va ko‘chat navlarini, o‘g‘it va o‘simliklar himoyasi vositalarini joylarga yetkazib, dala yarmarkalarini o‘tkazish hamda ekinlarni yer maydonlarida “bir kontur - bir mahsulot” tamoyili asosida joylashtirishni tashkil qilish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kafolatli xarid qilish bo‘yicha shartnomalar tuzish ishlarini tashkil qilsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (B.Hamrayev), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (T.Allaniyozov), tuman Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (F.Berdiev), Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi tuman bo‘limining ofis rahbari (O.To‘rayev) bilan birgalikda har bir hududda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini tushuntirish bo‘yicha seminarlar o‘tkazsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Hamrayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Choriyev O'. A.